

## BUXORO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI


2026- yil yanvar-may oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport hajmi
- III. Import hajmi
- IV. Metama'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

### I. TASHQI SAVDO AYLANMASI

2026- yil yanvar-may oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 675,5 mln. AQSH dollariga yetdi va 2025- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 48,0 mln. AQSH dollariga yoki 7,7 % ga ko'paydi.

Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH dollari)



TSAda eksport hajmi 178,4 mln. AQSH dollariga (2025-yilning yanvar-may oyiga nisbatan 47,2 % ga ko'paydi) va import hajmi 497,1 mln. AQSH dollariga (0,2 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 318,7 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

**Buxoro viloyatining yirik hamkor davlatlar  
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (mln. AQSH dollari)**

Davlatlar	2024-y.	2025-y.	2026-y.
<b>Rossiya</b>	<b>143,2</b>	<b>254,2</b>	<b>217,6</b>
XXR	206,4	135,0	98,9
Turkmaniston	46,1	54,7	72,5
Afgoniston	19,4	34,9	59,5
BAA	1,1	4,2	58,6
Eron	19,9	24,7	47,6
Qozog'iston	25,1	21,9	26,2
Qirgiz Respublikasi	6,6	8,5	13,8
Turkiya	27,8	20,6	12,7
Tojikiston	4,1	9,1	11,6
Germaniya	16,5	9,3	8,6
Gonkong	0,4	0,4	6,1
Italiya	0,8	1,0	4,7
AQSH	6,2	3,8	4,7
Polsha	3,2	3,3	3,3
Hindiston	5,3	11,0	3,3
Belarus	3,7	3,2	2,4
Singapur	0,0	0,0	2,3
Shvetsariya	1,4	0,2	2,1
Koreya Respublikasi	3,1	2,0	1,8

Buxoro viloyati 75 ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (32,2%), XXRda (14,6%), Turkmanistonda (10,7%), Afg'onistonda da (8,8%) va BAAda (8,7%) qayd etilgan.

**II. BUXORO VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI**


2.1- jadval

Tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2025- y.	2026- y.	2025- y.	2026- y.	2025- y.	2026- y.
<b>Jami eksport</b>	131,2	178,4	112,3	136,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14,2	9,5	238,9	67,1	10,8	5,3
Ichimliklar va tamaki	1,1	0,7	164,9	63,0	0,8	0,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4,4	4,6	48,2	104,4	3,4	2,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	31,8	46,0	172,2	144,7	24,2	25,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	4,2	1,8	12738,6	0,0	2,4
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	2,2	13,8	136,6	628,1	1,7	7,7
Sanoat tovarlari	50,3	45,1	79,2	89,7	38,3	25,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	9,0	19,8	2951,8	220,4	6,8	11,1
Turli xil tayyor buyumlar	8,5	21,0	131,1	246,6	6,5	11,8
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

Mavzugadoirhavola: [Eksporttarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 92,4 % ni tashkil etib, asosiy ulush mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (25,8 %), sanoat tovarlari (25,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (5,3 %) va mashinalar va transport asbob-uskunalari (11,1 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**Buxoro viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari**  
(mln.AQSHdollari)



Mavzugadoirhavola: [Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

2026-yil yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya (33,1 %), Afg'oniston (30,5 %), Qozog'iston (9,4 %), Tojikiston (5,2 %), Qirg'iz Respublikasi (3,6 %), Turkmaniston (2,5 %), Germaniya (1,9 %), AQSH (1,9 %), Turkiya (1,7 %), Polsha (1,3 %), va XXR (1,3 %) kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 94,3 % ni tashkil etdi.

**Xizmatlar eksporti tarkibi (mln. AQSH doll.)**



Mavzuga doir havola : [Xizmatlar eksporti \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar eksporti hajmi 13,6 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 7,6 % ini tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 46,8 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (14,9 %), transport (0,9 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (29,3 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (44,1 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

**III. BUXORO VILOYATINING IMPORTI**

2026-yilning yanvar-may oylarida import hajmi 497,1 mln. AQSH dollariga yetdi va 2025-yilning mos davriga nisbatan 0,2 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mineral yoqilg'i, yog'lash oylari va shunga o'xshash materiallar (32,8 %), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (25,1 %), Mashinalar va transport asbob-uskunalari (20,2 %) hamda sanoat tovarlari (11,9 %) hisobiga to'g'ri keldi.

## Buxoro viloyatining importi tarkibi


3.1- jadval

XSST tarkibi	Mln.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.
<b>Jami import</b>	<b>496,3</b>	<b>497,1</b>	<b>112,0</b>	<b>100,2</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	10,9	13,8	153,4	126,6	2,2	2,8
Ichimliklar va tamaki	1,1	0,6	7,6 m.	53,1	0,2	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	14,3	11,3	2,3 m.	79,5	2,9	2,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	210,3	163,0	144,1	77,5	42,4	32,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,2	0,5	33,2	299,1	0,0	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	48,6	124,8	184,9	257,0	9,8	25,1
Sanoat tovarlari	52,5	59,2	235,5	112,7	10,6	11,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	128,0	100,5	99,8	78,5	25,8	20,2
Turli xil tayyor buyumlar	30,2	23,2	28,4	77,0	6,1	4,7
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	0,0	0,0	117,8	39,6	0,1	0,0

Mavzugadoirhavola:[Import tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

Tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2026-yilning yanvar-may oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 497,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,1 mln. AQSH dollariga yetdi.

## Buxoro viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari (mln. AQSH dollari)



2026-yil yanvar-may oylarida Buxoro viloyati 67 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar Rossiya (32,8 %), XXR (19,6 %), Turkmaniston (13,7 %), BAA (11,7 %), Eron (9,1 %), Qozog'iston (1,9 %), Turkiya (1,5 %), Qirg'iz Respublikasi (1,2 %), Gonkong (1,0 %) va Italiya (0,9 %) jami importning 94,5 % ni tashkil etdi.

Mavzuga doir havola:[Xizmatlar importi \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)



Xizmatlar importi esa tarkibining asosiy ulushi tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (100,0 %) ga tegishli bo'ldi.

#### **IV. METAMA'LUMOTLAR**

\*Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezidentdan norezidentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tiyulgan va bojxona deklaratsiyasida hisobga oliniyulgan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

#### **V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR**

- [Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(yillik\)](#)
- [Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(yillik\)](#)
- [Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)
- [Tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'ati \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)
- [Eksport hajmi \(hudular kesimida, yillik\)](#)
- [Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)
- [Import hajmi \(yillik\)](#)
- [Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)
- [Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

<b>Chop etishga masul:</b> Xizmatlar va savdo statistikasi bo'limi	<b>Boshqarma boshlig'i:</b> U.Djumanazarov Tel: +998655058000 (8000)	<b>Ijrochi:</b> Z. Saidova Tel: +998655058000 (8040) e-pochta: : <a href="mailto:info@buxstat.uz">info@buxstat.uz</a> <a href="mailto:buxstat@exat.uz">buxstat@exat.uz</a>	<b>Manzil:</b> 200100, Buxoro sh., Gazli shoh ko'chasi, 32
---	--	---	---